

5. M.B Kubayeva Implementation of visual-didactic games in ecological education of students of preschool educational organizations current research journal of, 2022

## **GLOBALSHUV SHAROITIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISHNING INNOVATION YECHIMLARI**

**G'apparov Elyorjon Otabekovich**  
**Namangan davlat universiteti dotsenti v.b., f.f.d.(PhD)**

**Annotatsiya:** Fanlararo aloqalar va fanlararo integratsiya jarayonlarini amalga oshirish hozirda jahon hamjamiyati tomonidan innovatsion rivojlanishning asosiy sharti sifatida qabul qilinmoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonaiy dunyoning talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, kreativ avlodni tarbiyalash uchun jamiyat sohalarida mazkur islohotlar amalga osirilishi zarur. Maqolada globalshuv sharoitida fanlararo integratsiyani amalga oshirishning muhim jihatlari, innovatsion yechimlari ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Globalshuv, fanlararo aloqa, fanlararo integratsiya, sivilizatsiya, STEAM.

**Аннотация:** Осуществление междисциплинарных коммуникаций и междисциплинарных интеграционных процессов в настоящее время принимается мировым сообществом как базовое условие инновационного развития. Необходимо провести данные реформы в сферах общества, чтобы воспитать всесторонне зрелое, творческое поколение, способное отвечать требованиям быстро меняющегося современного мира. В статье научно анализируются важные аспекты и инновационные решения реализации междисциплинарной интеграции в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** Глобализация, междисциплинарная коммуникация, междисциплинарная интеграция, цивилизация, STEAM.

**Abstract:** The implementation of interdisciplinary communications and interdisciplinary integration processes is currently accepted by the world community as a basic condition for innovative development. It is necessary to carry out these reforms in areas of society in order to educate a comprehensively mature, creative generation capable of meeting the demands of the rapidly changing modern world. The article scientifically analyzes important aspects and innovative solutions for the implementation of interdisciplinary integration in the context of globalization.

**Key words:** Globalization, interdisciplinary communication, interdisciplinary integration, civilization, STEAM.

Globalshuv jarayoni jamiyat sohalarining barchasiga birdek jiddiy ta'sir ko'rsatishi bugungi kunda hech birimizga sir emas. Mazkur vaziyat ta'lim tizimiga ham bevosita tegishli bo'lib, tobora tizimda fanlararo integratsiya jarayonini amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda barqaror

rivojlanish g'oyalarini ta'lim amaliyotiga joriy etish odatiy kun tartibiga aylangan. Bu ta'limni amalga oshirishda o'ziga xos innovatsion yondashuvni yo'lga qo'yishga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan barqaror rivojlanish muammolarini hal etishga qaratilgan innovatsion g'oyalarini jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilishi kundan-kunga ko'payib bormoqda. Masalan, Stenford universitetida toza energiya va kam uglerodli iqtisodiyotini qurish muammosiga yechim topish bitirivchilar ilmiy faoliyatining nazariy hamda amaliy faoliyati asosiga aylangan. Bunday innovatsion ishlanmalarni yaratish oliy ta'lim, fan, ishlab chiqarish va biznes integratsiyasini kuchaytirish hamda o'qituvchilar va talabalarni ilg'or fundamental tadqiqotlarga faol jalb etish, ilmiy g'oyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqarish va iqtisodiyotga joriy etishni ta'minlash natijasida mumkin bo'ldi. Talabalarning bunday tadqiqotlarda ishtirok etishining eng muhim sharti ularni atrof-muhit hamda insoniyatning global muammolarini o'z ichiga olgan barqaror rivojlanish g'oyalari bilan tanishtirishdir.

Yuzaga kelgan yoki kelayotgan global mummolar mamlaktimizda ham fanlararo integratsiyaning amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ma'lumki, hozirgi vaqtda sanoatda yuqori texnologiyalar faol rivojlanmoqda. Xalqaro tajriba almashinuv jarayonlarining bunday tarzda globallasuvi, aytish mumkinki, butun insoniyat hayotida integratsiyalashuvni tobora kuchaytirmoqda [1.387]. Ular bir tomondan turli fanlarning sinteziga hissa qo'shsa, ikkinchi tomondan ular bilimlar, ilmiy tadqiqotlar hamda atrof-muhitni o'zgartirish uchun yangi uslubiy asoslarni yaratilishiga turtki bo'lmoqda [3.176].

Shu o'rinda ko'pgina tadqiqotchilar tabiiy-gumanitar fanlar sintezining ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlab, jamiyat hayotining barcha sohalariga ilmiy ixtirolar va innovatsiyalarni joriy etish jarayonida ijtimoiy fanlar va texnologiyalarning hal qiluvchi rolini asoslab bermoqdalar. Ayniqsa, jahoninig rivojlangan mamlakatlarida bir nechta fan sohalarini uyg'un xolda rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Masalan, AQSHda oliy ta'lim sohasida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan STEM ta'lim loyixasi mavjud. STEAM ta'limining asosiy xususiyati bir vaqtning o'zida zamonaviy ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilish imkoniga ega, innovatsiyalarni ishlab chiqishga hamda amalga oshirishga tayyor ko'p qirrali mutaxassislarni tayoorlashidir. Hozirda Yevropa va Osiyodagi ko'plab universitetlar ham fanlararo integratsiya, mutaxassislar va talabalardan iborat fanlararo jamoalarni yaratish va ularning fanlararo loyihalarda ishtirok etishiga asoslangan ko'p tarmoqli ta'lim modellarini amaliyotga joriy etmoqdalar.

Bunda talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasi nafaqat kasbiy muammolarni, balki mamlakat darajasida barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish uchun olingan kasbiy kompetensiyalardan foydalanishga tayyorligi va qobiliyati bilan belgilanadi. Bu fanlararo integratsiya va barqaror rivojlanish g'oyalarini amalga oshirish talablarini hisobga olgan holda zamonaviy universitetda mutaxassislarni kasbiy tayyorlash mazmuni va usullarini yangilashni nazarda tutadi.

Fanlararo integratsiya bugungi kunda ko'p ta'kidlanayotgan tushuncha bo'lsada, uning aniq mazmun-mohiyatini yaxlit tushuntirib beradigan yondashuv hozircha mavjud emas [2.8].

Shu o'rinda ayrim tadqiqotchilar fanlararo aloqalar hamda fanlararo integratsiya tushunchalarini farqlamaydilar. Aslida bu ikki tushuncha turli ma'nolarga ega bo'lib, birining mavjudligi ikkinchisining mavjudligini taqozo qiladi.

Fanlararo aloqalar deganda turli hodisalar (jarayonlar) va ob'ektlarning yonma-yon turishi va muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi. Fanlararo integratsiya esa turli mazmunlarda mavjud bo'lgan va yangi, yanada yaxlit mazmun yaratishni ta'minlaydigan yagona birlashtiruvchi tamoyilni anglatadi. BUndan shunday xulosa qilish mumkinki fanlararo aloqa integratsiya, innovatsiyaga qo'yilgan dastlabki qadam, fanlararo integratsiya esa innovatsiyaning o'zidir.

Fanlararo integratsiya mohiyatiga ko'ra uchta jihatni o'zida mujassamlashtiradi: tamoyil, jarayon va uning natijasi.

Fanlararo integratsiya tamoyil deganda ta'lim mazmunining (uning maqsadlari, loyihalash tamoyillari, tushunchalari, didaktik birliklari) jadal rivojlanish xarakterini tushinilib, bu jarayon barcha komponentlarning birligi yoki izchilligini anglatadi. Natijada fanlararo integratsiya talabalarning bilim va ko'nikmalarini tizimlilik va umumlashtirish darajasini, fanlararo muammolarni hal qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Falsafiy va psixologik-pedagogik jihatlarda fanlararo integratsiyani asoslash hamda amalga oshirish uchun quyidagi asosiy didaktik talablarni shakllantirishga imkon berdi:

a) prognoz qilingan ta'lim natijalariga muvofiq fanlararo integratsiyaning maqsadga muvofiqligini asoslash;

b) fanlararo integratsiya ob'ektlari, uning "birlashtiruvchi tamoyilini" aniqlash (yaratish);

v) o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlarini hamda jamiyat va kasbiy faoliyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-amaliy muammolarni hisobga olgan holda fanlararo aloqadorlik va fanlararo integratsiya usullarini asoslash;

d) olingan ilmiy va amaliy natijalarni loyiha faoliyati orqali ijtimoiy amaliyotga joriy etish imkonini beruvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonlarining mazmun-texnologik uzluksizligi (integratsiyasi) shartlarini aniqlash.

Bu bizga fanlararo integratsiyani (falsafiy nuqtai nazardan) turli mazmunlarga xos bo'lgan yangi, yaxlit mazmun yaratishga hissa qo'shadigan yagona birlashtiruvchi tamoyil deya tushinishimizga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш. Янги ўзбекистон стратегияси. - Т.: "O'zbekiston". 2021. 464 б.
2. Жук О.Л. Междисциплинарная интеграция как условие реализации идей устойчивого развития в профессиональной подготовке студентов. <https://core.ac.uk/download/pdf/38548335>.

3. Ахромеева, Т.С. Инновационные саморазвивающиеся среды в контексте синергетики и теории рефлексивного управления / Т.С. Ахромеева, Г.Г. Малинецкий, С.А. Посашков // Рефлексивные процессы и управление: сборник материалов IX Международного симпозиума 17-18 октября 2013 г., г.Москва; отв. ред. В.Е.Лепский. – М.: Когнито-Центр, 2013. - С. 171-182.

## **АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЯ РАБОЧИХ И СПЕЦИАЛИСТОВ К ПОВЫШЕНИЮ СВОЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ**

**Узаков Кахрамон Пазилдинович**  
**Преподаватель Академия государственного управления при**  
**Президенте Республики Узбекистан**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о путях и методах профессиональных специалистов по совершенствованию и развитию своего профессионального мастерства.

**Ключевые слова:** квалификация, профессия, образование, массовое образование.

### **ANALYSIS OF THE ATTITUDE OF WORKERS AND SPECIALISTS TO IMPROVING THEIR PROFESSIONAL QUALIFICATIONS**

**Abstract:** This article provides information about the ways and methods of professional specialists to improve and develop their professional skills.

**Key words:** qualification, profession, education, mass education

“Цифровизация и пандемия ускорили преобразования на рынке труда. Теперь во всем мире люди будут терять работу не только из-за распространения новых технологий, как предсказывалось ранее, но и из-за экономического кризиса. Согласно докладу, к 2025 г. новые технологии уничтожат 85 млн рабочих мест и создадут взамен 97 млн новых.”

**Доклад «Будущее рабочих мест 2020». Future of Jobs.**

Страны региона прилагают быстрые усилия для того, чтобы пополнить ряды развитых стран и создать благополучную экономическую жизнь для населения. Об этом свидетельствуют экономические реформы, проводимые в странах Центральной Азии, и совершенствование их правовой базы.

В этом плане возрастает роль сотрудников низшего и среднего звена, то есть профессионалов. Причина в том, что они являются главными локомотивами экономики. В целом основную часть экономически активного слоя составляют владельцы профессиональных профессий.

Ни для кого не секрет, что в современную эпоху глобализации спрос и предложение товаров и услуг на рынке меняются день ото дня. Это вызывает изменения в требованиях и правилах рынка труда, а также ценностях на рабочем месте.